



## BUXORODAGI KO'KALDOSH MADRASASI XUSUSIDA

Rajabov Oybek Iskandarovich

BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi  
Juraqulova Sevinch Jo'rabek qizi  
talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18870672>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> February 2026  
Accepted: 15<sup>th</sup> February 2026  
Published: 28<sup>th</sup> February 2026

### KEYWORDS

*Qulbobo Ko'kaldosh, Dor ul-funun, oxund, a'lam, mufti, mutavalli, mudarris, xonaqoh, hammom, karvonsaroy, vaqf, fiqh, dahyak, qori, hujra, guldasta, miyonsaroy, Mashrab, Maxtumquli, Sadriddin Ayniy.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada nafaqat Buxoro xonligi, balki butun Movarounnahr tarixidagi eng oliy darajadagi ilmiy dargoh, tom ma'noda, Buxoroning "Dor ul-fununi", yurtimizdagi eng katta madrasa - Ko'kaldosh madrasasi, uning tarixi, qurilish uslubi, ta'lim tizimi, ta'minoti va bugungi kundagi holati to'g'risida ma'lumot beriladi.*

Buxoro va Movarounnahr (Turon) zaminida eng yuqori mavqeda turgan, o'z davrining yuksak maqomli madrasasi Ko'kaldosh bugungi kunda ham o'zining kattaligi bo'yicha o'lkamizda birinchi o'rinda turibdi. Manbalarga ko'ra, bu yerda buyuk ilmi toliblar to'planib, ilmiy majlislar o'tkazib turishgan, Ko'kaldosh madrasasi talabalarining ilm darajasi ham boshqa madrasa talabalaridan baland bo'lgan. U Buxoro xonligi ta'lim tizimining eng oliy toifadagi maskani edi. Ko'kaldosh madrasasi Buxoroning o'ziga xos Fanlar Akademiyasi deb atalganligi ham bejiz emas.

N.Xanikov o'zining "Описание Бухарского ханства" asarida 150 ta hujrali deb ta'riflagan Ko'kaldosh madrasasi Buxoro shahrida, Labi Hovuz me'moriy ansamblining shimoli-sharqiy tomonida joylashgan 2 qavatli madrasa inshootidir. Buxoro xonligining poytaxtida 1568-1569 yilda Qulbobo ko'kaldosh tomonidan bunyod etilgan ushbu madrasa, shu davrdan boshlab, hozirgi kungacha Markaziy Osiyoning eng yirik madrasasi maqomini o'zida saqlab turibdi. Ko'kaldosh madrasasi Buxoroning markaziy ko'chalaridan birida, Qoqilai hurd, yoki Ko'kaldosh guzarida, shayboniy hukmdor Abdullaxon II davrida, xonning hohishi bilan, uning vaziri va sarkardasi Qulbobo ko'kaldosh homiyligida bunyod etilgan.

Mazkur tarixiy obida kattaligi hamda egallagan maydoni jihatidan avvalgi madrasalardan ustun o'laroq, bu davrda nafaqat Buxorodagi, balki Markaziy Osiyodagi eng yirik madrasa inshooti bo'lib, hozirga davrga qadar shu maqomni o'zida saqlab qolgan.

Madrasa uchun Qulbobo ko'kaldosh Buxorodagi tim, govxona, nonvoyxona, hammom, 2 karvonsaroy, 27dan ortiq do'konlarni (paxta savdosi, sarroflik, qassoblik, oshpazlik, bo'yoqchilik, tarvuzfurushlik va hokazolar), Kasbidagi Nayiston qishlog'ini to'laligicha, Harqonruddagi Xatoizza (yoki Xatog'arra), Zulayho qishloqlarini, G'ijduvondagi Qasri quzzot qishlog'ini vaqf qilgan. Oradan bir qancha vaqt o'tib, jamoat arboblari, olim-u ulamolar va din peshvolari ham o'zlarining turli miqdordagi mulklarini ushbu madrasa uchun vaqf qiladi. Shuningdek, dinga, fiqh va arab grammatikasiga oid kutubxona kitoblari ham madrasa foydasiga vaqf qilingan bo'lib, ularning ro'yxati bizgacha yetib kelgan.

Ko'kaldosh madrasasining vaqf hujjatlari ilk bora professor Muso Saidjonov tomonidan o'rganilib, o'zbek tiliga tarjima qilingan. Keyinchalik, hujjatlar Abdusattor Jumanazar tadqiqotlari davrida qayta o'rganib chiqilgan. Madrasaning bizgacha ikkita vaqf hujjati yetib kelgan. Biri asl (1593-1594 yillarda tuzilgan), ikkinchisi Buxoro amirligi hukmdori Amir Shohmurod (1785-1800) davrida ko'chirilgan nusxa. Asl nusxa charm g'ilofli, o'ram shaklida, tili forsiy, nasta'liq xatida yozilgan. Ko'chirma nusxa ham asliga mos. Vaqf hujjatida Ko'kaldosh madrasasi qurilishi bilan bog'liq ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Abdusattor Jumanazarning "Buxoro ta'lim tizimi tarixi" asarida, vaqf hujjati bo'yicha quyidagicha ma'lumot beriladi: "Amir Yormuhammad otaka o'g'li Qulbobo Ko'kaldosh pishiq g'ishtdan ko'p hujrali, toqli-ravoqli, ichki va tashqi sahnli, masjidi, darsxonasi va tahoratxonasi bor ajoyib madrasa qurdirdi".

Madrasaning sharqiy qismida hovlilar, janubi-g'arbi va shimoli ko'chaga tutashgan. Rivoyat qilinishicha, Ko'kaldosh madrasasining vaqfiga kiritilgan hammom, hozirgi Mavlono Sharif xonaqosi o'rnida bo'lgan. Vaqf ta'sischisining vasiyatiga ko'ra, ushbu hammomda madrasa talabalari bepul yuvinishlari kerak bo'lgan. Bino yomon holatga kelib qolgandan so'ng, Mavlono Sharif madrasa vaqfi foydasiga topshirish uchun Dungiyoq qishlog'idan yer maydoni sotib oladi. Buning evaziga hammom uning xususiy mulkiga o'tadi, u hammomni buzdirib, o'rniga xonaqoh bunyod ettiradi. Ko'kaldosh madrasasi vaqfi ro'yxatiga kiritilgan 2 karvonsaroydan biri So'xta deb nomlangan. Unga o't ketishi natijasida yonib ketgan va o'rnida bizgacha yetib kelgan No'g'ay karvonsaroyi qurilgan.

Madrasa o'z maqomini Buxoro xalq sovet respublikasi tashkil etilgandan so'ng ham yo'qotmadi. Ko'kaldosh bu davrda yagona Dor ul-funun bo'lib qoldi. Qolgan yirik madrasalar esa Dor ut-tolibin (masalan Govkushon, Abdullaxon madrasalari) va Doril-mudarrisin (Mir Arab madrasasi) deya ataladigan bo'ldi. Buxoro ilm va ta'lim-tarbiya tizimining eng oliy toifadagi olimlari — oxund, a'lam, muftilar biror masalani hal etish maqsadida, odatda, ushbu madrasada yig'ilishgan. Madrasaning mudarrisi bo'lmish oxund, oliy ta'lim sohasidagi oliy darajani egallagan, ziyoli olimlar ichidan ta'yinlangan. Abdurahmon Abdulloh oxund ushbu toifa vakili to'g'risida shunday ma'lumot yozib qoldirgan: "Buxoroda faqat birgina oxund bo'lgan. Ya'ni 11 nafar muftidan biri Gavkushon madrasasida a'lam unvoniga yetgach, undan so'ng Ko'kaldosh madrasasida oxund bo'lardi va undan boshqa o'ringa bormasdan shu yerda vafot etardi. Shu sababli Ko'kaldosh madrasasini oxundga nisbatan Darvozai mar, ya'ni O'lim qopqasi derlar". Ya'ni, madrasadagi eng oliy lavozim oxund ekanligini bilishimiz mumkin. Abdusattor Jumanazarning ma'lumotiga ko'ra, madrasaning 1 nafardan mudarrisi, imomi, muazzini va 2 nafar farroshi vaqf mablag'idan ish haqi, talabalar esa - stipendiya olishgan. Maliho Samarqandiy, Ziyo Sadr kabi olimlar yozishicha, o'tgan besh yil mobaynida Markaziy Osiyodan tashqari Hindiston, Afg'oniston, Eron, Rossiya va Kavkaz o'lkalarining ilm talab ziyolilari Ko'kaldosh madrasasida ta'lim olishgan.

Talabalar hujralarda yashashgan. Bitta hujrada 2 nafar talaba yashagan. Dars mashg'ulotlarini 2 oy uzrli sabablarsiz tark etgan talaba madrasadan chetlashtirilgan. Bundan tashqari, Ko'kaldosh madrasasining vaqf hujjatida qayd etilgan shartga ko'ra, vaqfga o'tkazilgan kitoblar 2 mutavalining ixtiyoriga berilgan. Ularning biri madrasa vaqfining ko'chmas mulk mutavalisi, ikkinchisi esa kutubxona mutavalisi bo'lganligi yozib qoldirilgan. Madrasada talabalarining o'qitilishi taxminan 20 yil davom etgan. Madrasa o'quvchisi dastlabki 3-4 yildan so'ng muazzin (so'fi) unvonini olgan. Yana taxminan 1-2 yil o'tib dahyak unvonini qo'lga kiritgan. Bu unga stipendiya olish huquqini bergan. Dahyak stipendiyasining qiymati yiliga 120 tangani tashkil etgan. Ma'lum muddatdan so'ng esa dahyak qori bo'lgan. Ta'limning keyingi bosqichida talaba salovot dushambegi unvonini olgan. Shundan so'nggina madrasa kursi tugallangan hisoblanib, talabaga mudarris unvoni berilgan. Mudarris bir necha yillar davomida bir guruh talabalarni qabul qilgan holda bepul ta'lim bergan. So'ngra unga madrasa vaqfidan yilik maosh belgilangan, deb Rempel o'z asarida ma'lumot beradi. Manbalarga ko'ra, madrasa talabalari quyidagi 3 toifaga ajratilgan:

Past qadam - yillik maoshi 3 tilla (Sarf ilmidan Tahzibgacha o'qigan);

Miyona - yiliga 3,5 tilla olgan (Tahzibdan Mulla Jalolgacha o'qigan);

Pesh qadam - Mulla Jaloldan keyin davom ettirgan va yiliga 5 tilla haq olgan.

Madrasada, Oxund Yusuf Qorabog'iy, Mavlono Sharif Buxoriy, Atoullaxo'ja ibn Hodixo'ja, Oxund Inoyatulloh Buxoriy, Hodixo'ja ibn Nizomiddinxoja, Muhammad Sultonxo'ja oxund, Oxundi A'lam Buxoriy Abdumo'minxo'ja Mujaddidiy, Mulla Yahyo Fayz kabi oxundlar dars bergan. Ko'kaldosh madrasasida o'z davrining buyuk va ulug' vakillari ta'lim olishgan. Xususan, Maxtumquli, Boborahim Mashrab, Amir Shohmurod, Marjoniy Shahobiddin, Jalol Ikromiy, Sadridin Ayniy kabilar shular jumlasidandir.

Madrasaning arxitekturasi va qurilish uslubiga qaraydigan bo'lsak, uning old fasadi asosiy kirish peshtog'idan va ikki qanotdan tashkil topgan va Labihovuz ansambli maydoniga qaratilgan. Qanotlar tarkibiga 2 qavatli hujralar va 2 ta gumbazsiz guldastalar kiradi. Madrasa ichkarisiga peshtoqning naqshinkor darvozasi orqali kiriladi. Darvoza ortida miyonsaroy joylashgan bo'lib, u orqali madrasa hovlisiga eltuvchi yo'laklar o'tgan va uning ikki yonida madrasa zallari (masjid va darsxona) joylashgan. Zallarning tashqi gumbazlari buzilib ketgan. 2 ayvonli hovli, 2 qavatli katta-kichik hujralar bilan o'rab olingan. Inshoot o'z davri me'morchilik qoidalarga ko'ra mozaika va mayolika bilan bezatilgan. Madrasa hujralarining umumiy soni 160 ta, ayrim manbalarda 147-150 ta deb keltiriladi.

Madrasaning old tomoni peshtoqli bo'lib, Labihovuz ansambli maydoniga qaratilgan. Peshtoq markazda joylashgan bo'lib, u bosh fasadning ikki qanotini birlashtirib turadi. Uning pastki qismida, 2 tomonda yashil oniksdan bir xil qilib bejirim ishlangan kichik ustunchalar o'rnatilgan. Peshtoqni avvallari bezatib turgan koshinlari (kitobasidagi yozuvlardan tashqari) hozirgacha saqlanib qolmagan. Oxirgi ta'mirdan so'ng kitoba va qanoslargina koshinlar bilan bezatilgan. Peshtoq tarkibidagi madrasaga kirish darvozasi alohida e'tiborga sazovordir. U girih va islmiy naqshlar bilan bezatilgan. Xotamkori uslubida terib mahkamlangan (ya'ni, mix qoqmay, "tirno" qilib mahkamlangan). Darvoza ortida miyonsaroy joylashgan.

Miyonsaroy - bu fors-tojik tilidan, markaziy xona, o'rta xona, degani. 2- ma'noda esa madrasa yoki masjidning kiraverishidagi dolon (yo'lak)dir. Miyonsaroy madrasaga kirish darvozasi ortida joylashgan. Adabiyotlarda miyoxona, darvozaxona, vestibul tarzida ham nomlanadi. U 5 gumbazli bo'lmaldan tashkil topgan bo'lib, madrasa hovlisiga kirish uchun koridor vazifasini bajaradi. Miyonsaroyning ikki yonida madrasa zallari joylashgan.

Miyonsaroyning sernaqsh qubbali o'z konstruksiyasi bilan tashrif buyuruvchilar e'tiborini o'ziga tortadi. Ular ganchdan xilma-xil qilib quyilgan ravoqlardan yig'ilgan. Uning ichki gumbazlari va bag'allari, shipi o'ziga xos turli shakldagi murakkab to'rsimon, yulduzsimon, qolipkori va iroqi uslubida pishiq g'ishtdan ganch qorishmasida terilgan. Miyonsaroyning o'ng tomonidan o'tuvchi yo'lakda botiq va yotiq qovurg'ali, mozaik plafonli, maydalangan g'ishtlardan yasalgan bukma yuzali ravoq shaklida dekorativ kvadrat bostirma diqqatga sazovor.

Madrasaning hovlisiga kelsak, to'g'ri burchak shaklidagi (42x37 metr) uzun qilib solingan, unga miyonsaroy orqali kiriladi. Hovli tomondagi 2 qavatli chuqur ravoqlar qatorini yuzmayuz qilib joylashtirilgan peshtoqli 2 ta baland ayvonlar ajratib turadi. Mablag'ni va turar joyni tejash uchun madrasa bo'ylama o'q bo'ylab ikkitagina gumbazli ayvon qilib qurilgan. Har bir ravoqdan alohida hujraga kiriladi. Hovli atrofi 2 qavatli hujralar bilan o'rab olingan. Yon tomonidagi hujralarning pastki qavatiga (tashqi devorlarida) xonani yoritish uchun panjaralar o'rnatilgan. Yuqori qavatiga esa qator qilib chuqur ravoqlar ishlangan. Ravoqlar tepasini va ba'zi darcha panjaralarini bezatishda sirkor koshin ancha tejab ishlatilgan. Hovlidagi shimoliy peshtoq ganchga yopishtirilgan sirkor koshin bo'laklar bilan bezatilgan. Bu ko'k, yashil va oq naqshinkor bezaklar o'simliklarni tasvirlaydi.

Ko'kaldosh madrasasining qurilishi haqida ko'plab afsona va rivoyatlar mavjud. Ulardan birida aytilishicha, Abdullaxon va Qulbobo ko'kaldosh amakivachcha bo'lgan ekan. Hali Abdullaxon hukmdor bo'lmasidan avval Qulbobo ko'kaldosh ikkovi polizga kelib, qovun va

tarvuz so'yib yebdilar. Kuz bo'lsa ham kun issiq ekan. Shu yerda kigiz ustida Abdullaxon bilan Qulbobo ko'kaldosh cho'zilib uxlamochi bo'lishibdilar. Abdullaxon darrov uxlab qolibdi, ammo Qulbobo ko'kaldosh uxlay olmabdi. Bir mahal Qulbobo ko'kaldosh qarasa, Abdullaxonning burnidan bir chivin chiqibdi. Uchib yerda yotgan pichoqning ustidan o'tib, bir yoriqqa kirib ketibdi. Picha vaqtdan keyin chivin yoriqdan chiqib ortiga qaytibdi. Yana qaytib kelib Abdullaxonning burniga kirib ketibdi. Bir mahal Abdullaxon uyg'onib Qulbobo ko'kaldoshga qarab, tushini aytib beribdi. Tushida u bir yoqlarga borib, temir ko'prikdan o'tib, jarday bir chuqurlikda bir ko'za tilla borligini ko'rganini aytibdi. Bu voqeani kuzatib turgan Qulbobo ko'kaldosh Abdullaxondan g'alati narsani sezib qolibdi. Qulbobo ko'kaldosh haligi yoriqqa maxsus belgi qo'yibdi-da, Abdullaxon xizmatida yuraveribdi. Davr aylanib Abdullaxonga Buxoro xonligi tegib qolibdi. Shundan keyin Abdullaxon Qulbobo ko'kaldoshni chaqirib, xizmati evaziga biror narsa so'rashini aytibdi. Qulbobo ko'kaldosh haligi polizzorni tilabdi. Darrov Abdullaxon Qulbobo ko'kaldoshga polizzorning o'rnini vasiqa qilib beribdi. Qulbobo ko'kaldosh o'sha polizzorga borib, belgi qo'yilgan joyni topibdi-da, xazinani qazib olibdi. Qulbobo shu xazinani sarflab, Buxoroda Ko'kaldosh degan katta bir madrasani qurdirgan ekan.

Madrasaning bugungi holati to'g'risida gapiradigan bo'lsak, qurilganidan beri bir necha bor ta'mirlanganiga qaramay, u hozirda Buxoroda eng og'ir ahvolda qolib ketgan madaniy meros obyektlaridan biri bo'lib, unda ayollar go'zallik saloni, video-montaj ustaxonasi, ofislar, do'konlar, hunarmandchilik ustaxonasi va hujra-muzeyi joylashgan. Aksariyat hujralari ta'mirtalab ahvolda qolib ketgan. Bu yerda Sadridin Ayniy ham ta'lim olgan bo'lib, u yashagan hujra muzeyga aylantirilgan va eksponatlar bilan jihozlangan. 1960-1970 shuningdek, 1995-1997-yillarda qisman ta'mirlangan.

Xulosa qilib aytganda Ko'kaldosh madrasasi nafaqat Shayboniylar davrida, balki Ashtarxoniylar va Mang'itlar sulolasi davrida ham eng yirik, nufuzli ilm dargohi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Markaziy Osiyo hamda dunyoning ko'pgina davlatlaridan kelgan tolibi ilmlar asrlar davomida bu dargohda bilim olishgan. Bejizga aynan Ko'kaldosh zamonasining "Dor ul-fununi" deyilmagan edi. Ko'kaldosh madrasasi bugungi kunda ham ko'hna va boqiy Buxoro shahrida, Labi Hovuzdan shimolda 500 yillik ulug'vor ilm maskani va Shayboniylar davri me'morchiligining yorqin namunasi sifatida qad ko'tarib turibdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдусаттор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. Тошкент. 2017.
2. Асророва Л.Қ. Бухоро мадрасалари тарихидан. Тошкент. 2017.
3. Бобожонова Ф. "Бухоро амирлигида таълим тизими". Тошкент. 2014.
3. Н. Хаников. "Описание Бухарского ханства". Санкт-Петербург. 1843.
4. Жўраев М., Саидова Р. Бухоро афсоналари. Тошкент. 2002.
5. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарихи Рашидий. Тошкент. 1996.
6. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий. Тошкент. 2001.
7. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Бухоро. 2012.
8. Тўраев Ҳ. Бухоро тарихи. Бухоро. 2020.9. <https://meros.uz/object/kokaldosh-madrasasi>
10. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/miyonsaroy-uz/>.